Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rne va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



HUDUDIY IQTISODIY XAVFSIZLIK VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Raximov E. N.

PhD, Toshkent moliya instituti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada hududlarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun soliq salohiyatini oshirishning ilmiy, nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Iqtisodiy xavfsizlik va soliq salohiyatiga oid ilmiy tadqiqotlar natijalari o'z aksini topgan. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati misolida hududlarni rivojlantirish ko'rsatkichlari va soliq tushumlari tahlili berilgan. Mavzu bo'yicha muhim xulosalar va amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, soliq salohiyati, soliq bazasi, yalpi hududiy mahsulot, asosiy kapital qo'yilmalari, budget daromadlari.

Abstract: The article describes the scientific, theoretical and practical aspects of increasing the tax capacity to ensure the economic security of the regions. The results of scientific research on economic security and tax potential are reflected. Also, the example of Kashkadarya region provides an analysis of regional development indicators and tax revenues. Important conclusions and practical recommendations on the subject are formed.

Key words: economic security, tax potential, tax base, gross regional product, fixed capital investment, budget revenues.

Аннотация: В статье рассмотрены научные, теоретические и практические аспекты повышения налогового потенциала для обеспечения экономической безопасности регионов. Отражены результаты научных исследований по вопросам экономической безопасности и налогового потенциала. Также на примере Кашкадаринской области проводится анализ показателей развития региона и налоговых поступлений. Сформулированы важные выводы и практические рекомендации по теме.

Ключевые слова: экономическая безопасность, налоговый потенциал, налоговая база, валовой региональный продукт, инвестиции в основной капитал, доходы бюджета.

Dunyoning barcha davlatlarida budget jarayonini to'g'ri rejalashtirish orqali tegishli sohalarni moliyalashtirishni amalga oshirish budgetning daromadlar qismiga pul mablag'larining bir maromda kelib tushishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu holat, avvalo, budgetga soliq tushumlarining kelib tushishini to'g'ri prognoz qilishga bevosita bog'liq bo'lib, aynan shu jarayonning tashkiliy-uslubiy jihatdan maqbul tarzda amalga oshirilmasligi budget ijrosida yuqori darajadagi taqchillikni keltirib chiqaradi. Xalqaro moliya institutlarining tahlillariga ko'ra, 2023-yilda dunyo mamlakatlarning davlat budgetining taqchilligi 1,4 trillion AQSH dollariga ^[1] teng bo'lishi prognoz qilinib, jahon iqtisodiyotidagi umumiy beqarorlik aksariyat rivojlanayotgan davlatlarda davlat budgeti daromadlarini to'g'ri rejalashtirishga salbiy ta'sir qilayotganligini ta'kidlash mumkin.

Shu bilan birga, soliq ma'muriyatchiligi sohasida, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni yig'ish, soliq solindigan bazani kengaytirish va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirishda muayyan muammolarning mavjudligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini moliyalashtirishning barqaror manbalarini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda ^[2].

Alohida ta'kidlash lozimki, "Ochiq-oshkora va adolatli soliq tizimi iqtisodiyot rivojining eng muhim asosidir. Lekin respublikamizda hozirgacha amal qilib kelinayotgan soliq ma'muriyatchiligida ayrim noaniqliklar borligi biznes, tadbirkorlik, investitsiya sohalari ravnaqiga to'siq bo'layotgan edi. Bu kabi muammolarni bartaraf etish, soliq yukini kamaytirish va chinakam bozor iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki va boshqa tashkilotlar ekspertlarini jalb qilgan holda, rivojlangan davlatlar



tajribasi asosida qabul qilingan ushbu konsepsiyada biznes uchun juda katta imkoniyatlar, xalqaro darajadagi qulay sharoitlar nazarda tutilgan. Xususan, kelgusi yildan boshlab soliq turlari 19 tadan 15 tagacha qisqarmoqda. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi 14 foizdan 12 foizgacha, dividendlar va foizlar ko'rinishidagi daromadlar bo'yicha foyda solig'i stavkasi 10 foizdan 5 foizgacha pasaytirildi. Yana bir muhim jihati, endi soliq stavkalari avvalgiga o'xshab keskin o'zgaruvchan bo'lmaydi. Bu investorlarga uzoq muddatli biznes loyihalarini rejalashtirishda qiyinchilik tug'dirmaydi".

Albatta, soliq salohiyati hududiy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim elementlaridan biridir. Shundan kelib chiqqan holda, dastlab "iqtisodiy xavfsizlik" kategoriyasi, uning mohiyatini, tuzilishini va tarkibiy qismlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

O'zining rivojlanish evolyutsiyasida "iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasi mutlaqo yangi kategoriya emas, albatta. Ammo mazkur tushuncha ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida xavfsizlikni ta'minlash ko'rinishida hozirgi Yevropalik va amerikalik iqtisodchilar tomonidan faol ravishda qo'llanilishi bundan 70 yil oldin boshlanganligini qayd etish mumkin [3]. Bu tushuncha keng ma'noda "iqtisodiy xavfsizlik mamlakat iqtisodiyotini xavfli ta'sirlardan biri" sifatida ko'rilgan [4].

XX asr oxirida iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi yanada dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Bu davrdagi rossiyalik iqtisodchi olimlardan L. I. Abalkin "iqtisodiy xavfsizlik" kategoriyasining ahamiyatiga kuchliroq e'tibor bergan holda, "milliy iqtisodiyotning mustaqilligini, uning barqarorligi va mustahkamligini, doimiy yangilanish va o'z-o'zini takomillashtirishga qodirligini ta'minlovchi sharoit va omillarning yig'indisi" [5] sifatida ta'riflagan.

Iqtisodchi-olimlardan A. P. Gradov va I. V. Ilinlarning fikricha, "jahon iqtisodiyoti tizimida yoki mamlakat hududida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy yoki ekologik xususiyatidagi fors-major holatlari yuz berishidan qat'i-nazar mamlakatning moddiy ne'matlarga bo'lgan zaruriy muhim ehtiyojlarini qondirishni ta'minlovchi milliy iqtisodiyot holatining himoya darajasi iqtisodiy xavfsizligini bildiradi" [6].

Qolaversa, rossiyalik olimlardan V. P. Bikov, O. A. Dembovskaya, E. M. Lebedko kabilarning ilmiy tadqiqotlarida hudud iqtisodiy xavfsizligi "iqtisodiyotning hozirgi holatini, uning barqarorligi va mutanosibligi, tashqi va ichki tahdidlarga chidamlilik darajasi va doimiy rivojlanish siklini tavsiflovchi sharoitlar hamda omillar yig'indisi, ichki va tashqi tahdidlarga munosib himoya ta'sirini ko'rsatuvchi mexanizmlarni nazarda tutuvchi yaxlit chorra-tadbirlar kompleksi" [7] ekanligini ta'midlaydi.

Shuningdek, bir qator rossiyalik olimlardan E. Grigoreva va L. Gafirovalarning ilmiy tadqiqotlarida davlat va hudud iqtisodiy xavfsizligining institutsional jihatlariga asosiy e'tibor qaratilgan. Ularning ilmiy ishlarida Petrenko metodologiyasiga ko'ra, hudud xavfsizligi indikator orqali xavfsizlik darajasini aniqlash bayon qilingan [8]. Ya'ni

$$Z_{general} = \sum_{i=1}^3 a_i z_i$$

bu yerda:

$Z_{general}$ – hudud xavfsizligi indikator, 1,3 xavfsizlik sohaları (tabiiy-ekologik, texnik-iqtisodiy va industrial, ijtimoiy);

a_i – o'rtacha tortilgan koeffitsiyent;

z_i – xavfsizlik ko'rsatkichi.

Yevropalik olimlardan Z. Simanavichiene va A. Stankevichius tomonidan iqtisodiy xavfsizlik va milliy iqtisodiyotga tahdidlar borasida olib borgan ilmiy tadqiqotlarida, davlatning va alohida hududlarning iqtisodiy xavfsizligi, iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarning hudud iqtisodiy xavfsizligidagi asosiy regulyator-richaglar ekanligi, makroiqtisodiy siyosatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga ta'siri o'rganilgan. Ularning ta'kidlashicha, Yevropa davlatlari tajribasida hududlarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda har bir davlat o'zining "Milliy xavfsizlik va rivojlanish strategiyalari"ning muhim tarkibiy qismi aynan iqtisodiy xavfsizlikka qaratilishi, bunda mahalliy va umumdavlat iqtisodiy mexanizmlarini qayta ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Ularning ilmiy tadqiqotlaridagi obyekt sifatida Boltiqbo'yi davlatlaridan Latviya Pespublikasi "Milliy xavfsizlik strategiyasi"da mamlakat hududlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda hududiy barqaror rivojlanish, axborot xurujlariga kontrazvedkaning mavjudligi, demografik infratuzilmaning rivojlantirish lozimligi qayd etilgan [9].

Rossiyalik olimlar "hudud iqtisodiy xavfsizligi" tushunchasi doirasida quyidagi jihatlariga alohida e'tibor qaratishgan: birinchidan, qonuniy, ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa jihatlar ta'siri hudud iqtisodiy xavfsizligining muhim omili; ikkinchidan, tizimli nuqtayi-nazardan, butun hudud iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillar majmuasi – hududning iqtisodiy rivojlanish holati, tashqi xavflarga nisbatan himoyalani harakatlarining mavjudligi va boshqalar.

Shu bilan bir qatorda hududlar iqtisodiy xavfsizligi borasida iqtisodchi olimlar va amaliyotchi mutaxassislarning ilmiy tadqiqotlari va bildirgan fikrlarini quyidagi jadvalda keltirish mumkin (1-jadval):

1-jadval: Hududlarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash borasida xorijlik olimlar ilmiy tadqiqotlari tavsifi

Iqtisodchi olimlarining F. I. Sh	Bildirilgan fikr va mulohazalar, ilmiy tadqiqot ishlari tavsifi
N. M. Kalinina ^[10]	Hududning iqtisodiy xavfsizligi – u yoki bu hududni iqtisodiy sohada ichki va tashqi xavflardan himoyalashni ta'minlovchi, barqaror iqtisodiy o'sish va takror ishlab chiqarishni amalga oshirishga imkon beruvchi, jamiyat ehtiyojlarini qondirish va turli sohalarda milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarning muqobil tizimi.
V. V. Karpov, A. A. Korableva ^[11]	Iqtisodiy xavfsizlik – tashqi omillar ta'siridan hududning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlovchi hudud iqtisodiyotining holati va hudud iqtisodiyotining barqaror, chidamli, uzluksiz rivojlanishi hamda o'sishi hisoblanadi.
G. Xuber, P. Rexm, M. Schlesinger, R. Valletta ^[12]	Ilmiy ishlarida hudud iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi xavf va xatarlarni tasniflab, tavsiflagan. Iqtisodiy xavfsizlik indeksi borasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Hududlar iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillarni ko'rib o'tgan.


Professor H. Abulqosimov “iqtisodiy xavfsizlik” ilmda dastlabki ilmiy tadqiqotchilardan biri hisoblanadi. Uning fikricha, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlamasdan turib, davlat iqtisodiy rivojlanishga erisha olmaydi. Bu borada institutsional mexanizmlarni to'liq shakllantirish va ularning vakolatlarini aniq belgilash maqsadga muvofiqligini alohida ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlik – mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanib, u o'zida tashqi va ichki omillar ta'sirida iqtisodiy tizim rivojlanishiga ta'sirlarni baholovchi mexanizmdir ^[13], deya qayd etadi.

Bundan tashqari, iqtisodchi olimlardan Sh. Allayarovning ilmiy ishlarida moliyaviy xavfsizlik sharoitida soliq intizomini mustahkamlash masalalari ko'rib chiqilgan. Bu borada, soliq intizomining moliyaviy xavfsizlikka ta'siri keng o'rganilgan.

Shuningdek, A. Burxanov o'z ilmiy ishlarida mamlakat moliyaviy xavfsizligining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga bog'liqligi borasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan ^[14].

M. Kadirov tomonidan esa “O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda innovatsion-investitsion faoliyatni takomillashtirish” borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, uning ilmiy ishlarida innovatsion-investitsiya xavfsizlik holatini baholash indikatorlari ishlab chiqilgan ^[15].

Yuqoridagi olimlarning ilmiy-tadqiqotlari natijalarini o'rganish davomida davlatning iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi xavflarni quyidagicha tasniflash mumkin (2-rasm).



1-rasm: Davlatning iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi xavflar tasnifi



Ushbu tasnifdan ko'rinib turibdiki, davlatning iqtisodiy xavfsizligiga yirik ikki guruh, ichki va tashqi xavflar guruhi doimiy o'zining ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Bu xavflarni, ya'ni ichki xavflarni bartaraf etish davlatning iqtisodiy xavfsizlik siyosatiga bog'liq bo'lsa, tashqi xavflar guruhi fors major holatlar ekanligidan kelib chiqsak, bu ko'p tomonlama va pragmatik ahamiyat kasb etishini ko'ramiz.

Hudud iqtisodiy xavfsizligi ham davlat iqtisodiy xavfsizligiga bevosita bog'liq bo'lib, hudud iqtisodiy xavfsizligi – iqtisodiyot va davlat hokimiyati institutlarining hudud iqtisodiyotini barqaror va davomiy rivojlanishini ta'minlovchi immunitetdir. Bu borada "hudud darajasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi asosiy muammo hududlarning ilmiy-texnik va innovatsion imkoniyatlari turlicha ekanligi, tabiiy sharoit – hududlar iqlimidagi farqlar hisoblanadi ^[16]. Aytish mumkinki, hududiy va hududiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarning natijasi o'laroq, iqtisodiy xavfsizlikning muhim ko'rsatkichi bo'lgan O'zbekiston Pespublikasi hududlaridagi aholi turmush darajasi va boshqa ko'plab hududiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha tabaqalanish – hudud iqtisodiy xavfsizligi ko'rsatkichining kritik miqdori, bo'lishi mumkin.

Shuningdek, "hududiy iqtisodiy xavfsizlik"ka aniq ta'rifni berish uchun bu tushunchaning tarkibiy tuzilishi, unga ta'sir etuvchi omillar, xavfsizlikni ta'minlash choralari hamda sharoitlarni aniqlash talab etiladi.




2-rasm: "Hududiy iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasining muhim tarkibiy qismlari va elementlari

2-rasmdan kelib chiqqan holda, "hududiy iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasiga bildirilgan fikrlardan xulosalar qilib, "hududiy iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasi tarkibi va muhim elementlari borasida quyidagi mulohazalarni keltirish mumkin:

- subyektlarning (shaxs, jamiyat va davlat) hayoti uchun muhim iqtisodiy manfaatlariga xavf soluvchi tashqi va ichki iqtisodiy omillar va tahdidlarni tavsiflash asosiy elementlardan biridir;
- qisqa va o'rta muddatda (3-5 yil) hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tizimiga zarar yetkazuvchi omillarni aniqlash va ularni monitoring qilib borish;
- hududiy iqtisodiy xavfsizlikka doir bo'lgan hududiy manfaatlarni tavsiflovchi mezonlar va o'lchovlarni aniqlash, ularni tasniflash;
- hududiy iqtisodiyot raqobatbardoshligi va rivojlanishiga salbiy ta'sir etuvchi omillar ta'sirini yumshatish, ularni bartaraf etishga qaratilgan hududiy iqtisodiy siyosatni olib boruvchi institutsional mexanizmlarini shakllantirish;
- hududiy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan strategiyaning muhim qismi iqtisodiyotni har qanday o'zgarish va tashqi ta'sirlarga chidamliligini ta'minlovchi chora-tadbirlarni qabul qilishni ko'zda tutadi, iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi faoliyat esa hududiy iqtisodiy boshqaruv faoliyati sohasi hisoblanadi.

Hududiy iqtisodiy xavfsizlikni kengroq tasavvur etish uchun, unga ta'sir etuvchi omillarni ko'rib o'tish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, iqtisodiy adabiyotlarda bu borada ta'sir etuvchi omillar 3 ta yirik guruhga ajratilgan.



3-pacm: Hududiy iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi omillar-xavflar guruhlari

Hududiy iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi omillarning guruhlanishi quyidagicha: ta'sir etuvchi omillarning manbasiga ko'ra – ichki va tashqi omillar; omillarning turlariga ko'ra – obyektiv va subyektiv omillar; omillarning ta'sir etish ko'rinishiga ko'ra – bevosita va bilvosita omillar^[17].

Hududiy iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi tashqi omillar – xavflar turkumini o'rganish ham muhimdir (2-jadval).

2-jadval: Hududiy iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi tashqi omillar-xavflar

Omillar-xavflar manbasi
Jahon iqtisodiyoti
Xalqaro mehnat taqsimoti
Xalqaro kapital bozori
Xalqaro moliya bozori
Xalqaro mahsulot va xizmatlar bozori
Xalqaro valyuta bozori
Xalqaro mehnat bozori

Shu o'rinda, hududiy iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi ichki omillar – xavflar guruhiga quyidagilarni kiritish mumkin:


3-jadval: Hududiy iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi ichki omillar – xavflar

Omillar-xavflar manbasi	Turlari
Milliy iqtisodiyot	Mamlakat hududlarining tabiiy resurslarining iqtisodiy to'g'ri taqsimot qilinmaganligi; Tabiiy komponentlar sabab soliq bazasining to'liq shakllanmasligi; Soliq va ijtimoiy to'lovlarning sezilarli oshishi; Investitsiyalarning mamlakat yalpi ichki mahsulot (YAIM) tarkibida kamayib borishi; Asosiy ishlab chiqarish tarmoqlariga ishlab chiqarish hajmining kamayishi; Iqtisodiyotning monopolizatsiyalashuvi; Asosiy fondlar tarkibining keskin o'zgarishi; Ish bilan bandlikning keskinlashuvi; Ishsizlik va inflyatsiya darajasining o'sishi.



Huquqiy va ma'muriy tuzilmalar	Davlat xaridlari va korrupsiya borasidagi huquqiy tartibga solinmagan jihatlar; "Yashirin iqtisodiyot" va "pul yuvish" borasidagi tartibga solish kerak bo'lgan jihatlar; Jamiyatning huquqbuzarlik darajasi; Jamoaviy munosabatlardagi huquqbuzarlik va jinoyatchilik darajasi.
Budjet tizimi va siyosati	Budjet daromadlarining nobarqarorligi; Moliyaviy nazoratchilar va budjetga soliq to'lovchilar o'rtasidagi moliyaviy majburiyatlarning bajarilmasligi; Budjet daromadlarining maqsadsiz ishlatilishi; Budjet xarajatlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga nomutanosibligi; Budjet zaxirasining ratsioniga rioya etilmasligi.
Ijtimoiy siyosat	Daromadlar o'rtasida yirik farqlarning mavjudligi, kambag'allik darajasi; Me'yoriy yashash tizimiga rioya etilishi; Hayot darajasi va sifati; Ijtimoiy himoya muhtoj aholi qatlamining himoya qilinmasligi; Tug'ilish, o'lim darajasi me'yori; Migratsiya jarayonlarining nazoratsizligi.
Ilmiy-texnik siyosat	Ilmiy-texnik-innovatsion potensial darajasi; Fundamental ilmiy darajasining pasayishi; Davlat ilmiy-texnik-innovatsion siyosatining belgilanmaganligi; Ilmiy xodimlarning, mutaxassislarning boshqa sohalarga yoki davlatdan chiqib ketishi holatlari.
Moliya bozori	Investitsiyalarni jalb qilishdagi samarasiz faoliyat olib boruvchi fond bozori; Peal sektor tarmoqlaridan moliyaviy resurslarning maqsadsiz chiqib ketishi; Mamlakatdan kapitalning "qochishi".

Shuningdek, tadqiqodlarimiz davomida hududlar iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillarni nafaqat boshqa iqtisodchilar kabi ichki va tashqi omillar guruhiga, undan tashqari, ularni harakatlantiruvchi va cheklovchi omillar sifatida ham ko'rib chiqish mumkin.



4-pacm: Hududiy iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi omillar

Keltirilgan omillar tasniflanishi shuni ko'rsatmoqdaki, o'zining ta'sir ko'rsatish yo'nalishiga ko'ra bitta omilning o'zi tahdid sifatida ham, shuningdek, imkoniyatlar sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Xususan, hududning innovatsion rivojlanishi yoki axborot-texnologiyalarga asoslanganligi hududiy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga yoki aksincha ularning nafaol faoliyati hududiy iqtisodiy xavfsizlikka ko'proq salbiy ta'sir etishini omillarning qarama-qarshi harakatini ifodalaydi.



Ushbu bildirilgan fikrlar asosida aytish mumkinki, hududiy iqtisodiy xavfsizlik – hududning iqtisodiy rivojlanish holatini tavsivlovchi ko'rsatkichlarning yaxlit majmuasi bo'lib, hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni bartaraf etish, iqtisodiyot tarmoqlarini tashqi salbiy ta'sirlardan himoyalash darajasidir. Hududiy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash hudud iqtisodiyotiga ta'sir etuvchi omillarni baholash va ularning ta'sirlarini (salbiy ta'sirini) kamaytirish borasida lozim bo'lgan choralarni nazarda tutadi.

Yuqoridagi fikrlar asosida shuni alohida ta'kidlash lozimki, hududiy iqtisodiy xavfsizlik hududning nafaqat iqtisodiy rivojlanishidaga to'siqlarni hisobga oladi, balki siyosiy, huquqiy, ijtimoiy darajada rivojlanish, hayot darajasini hisobga oluvchi muhim mexanizm hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. The Budget and Economic Outlook: 2023 to 2033 <https://www.cbo.gov/publication/58946>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5116-son Farmoni.
3. Cable, V. (1995). What is International Economic Security? International Affairs, Vol. 71, No 2, 312–317. Losman, D. (2001). Economic Security. A National Security Folly? Policy Analysis, No 409, 1–12.
4. Senchagov, V. K. (ed.) (2005). Ekonomicheskaya bezopasnost' Rossii [Russia's Economic Security]. Moscow, Delo.
5. Абалкин Л. И. Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение // Вопросы экономики. 1994. № 12. С. 4-13.
6. Градов А. П., Ильин И. В. Экономическая безопасность страны. Принципы анализа состояния и противодействия угрозам // Экономическая наука современной России. 2005. № 3 (30). С. 88-101.
7. Быков В. П., Дембовская О. А., Лебедев Е. М. Экономическая безопасность регионов и преодоление угроз в современных условиях // Экономика и эффективность организации производства. 2006. № 5. С. 60–63.
8. E. Grigoreva, L. Gafirova. The economic security of state: the institutional aspect. Procedia economics and finance. 24 (2015) 266-273. www.elsevier.com/locate/procedia/ Science Direct.
9. Zaneta Simanaviciene, Andrius Stankevicius. Economic Security and National Competitiveness. Mokslinu straipsniu rinkinys/ 2015 (15) ISSN-2029-1701. ISSN 2335-2035 (Online)
10. Калинина Н. М. Экономическая безопасность региона: сущность, угрозы и меры обеспечения // Сибирский торгово-экономический журнал. 2010. № 10. С. 1-21.
11. Карпов В. В., Кораблева А. А. Экономическая безопасность региона: понятийный аппарат, методология, угрозы // Экономическая безопасность России: проблемы и перспективы: материалы II Международной научно-практической конференции. Нижний Новгород, 2014. С. 163–169.
12. G. Huber, P. Rehm, M. Schlesinger, R. Valletta. 2010. Economic Security at Risk: Findings from the Economic Security Index.
13. Abulqosimov X. P. Iqtisodiy xavfsizlik. O'quv qo'llanma. –T., Akademiya. 2006.
14. Burxanov A. U. Mamlakat moliyaviy xavfsizligining mohiyati va uni ta'minlashning ayrim dolzarb masalalari. "Xalqaro moliya va hisob" elektron jurnali. № 4-5 con, avgust-oktyabr, 2018.
15. Karidov M. U. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda innovatsion-investitsion faoliyatni takomillashtirish. 23.00.05 – Milliy xavfsizlik muammolarini tizimli tahlili va prognozlashtirish (iqtisodiyot fanlari) iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2021-yil. 14 bet.
16. Ворожихин В. В., Тютюнник И. Г. Проблемы определения категории "Экономическая безопасность" // Экономическая безопасность России: проблемы и перспективы: материалы II Международной научно-практической конференции. Нижний Новгород, 2014. С. 135–140.
17. Господарик Ю. П. Пашковская М. В. Международная экономическая безопасность. 3-е изд., стр. *–М.: Университет "Синергия", 2018, – 416 с.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.